



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

YURTIMIZ QO'LYOZMA FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN ARBA'IN QO'LYOZMALARI

Gulrux Maxamedova Abduqahhor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy fanlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasи tayanch doktoranti tel: 97 761 89 92 Email:gulruxmahamedova@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada arbain asarlari tarixi, xususan, O'zR FA Shl qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan buyuk o'zbek mutafakkiri, davlat arbobi, g'azal mulkinining sulton Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari ijodiga oid va boshqa mualliflarga oid diniy asar hisoblangan "Arbain" ("Qirq ruboiy")lar haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Imom Muhiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy, Muhammad bin Sulaymon Fuzuliy, Abu Tohir bin Hasan Ali al-O'shiy, arba'in, shafoat, qirq hadis, hamd, na't, odob-axloq, to'rtlik, nazm, janr, guvoh, saylanma hadis, an'ana, odob-ahloq, «Chil hadis», forsiy, turkiy, arabi.

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak xalqimizning ko'p yillik tarixi bevosita Navoiy asarlari bilan bog'liq. Shuning uchun sharq adabiyotidagi manbalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish adabiy manbashunoslik va matnshunoslik fanlari oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Zero, diyorimiz azaldan ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Bu yurtdan ne-ne alloma zotlar yetishib chiqmagan deysiz. Ular qoldirgan ulkan ilmiy meros garchi turli bosqinlar davrida nobud qilingan, olib ketilgan bo'lsa-da, bizning davrimizgacha yetib kelganlarining adadi, hisobga olinganlari ham kishini hayratga soladi. Bu ulkan meros fanning turli sohalariga oid. Xususan, tabobat, kimyo, matematika, tarix, islom ilmlari – ajdodlarimiz shug'ullangan barcha fan sohalariga doir manbalar o'rinn olgan. Qo'lyozma manbalar IX asrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan davrga oid bo'lib, arab, fors, qadimgi turkiy va boshqa sharq tillarida yozilgan⁹.

Bizga ma'lumki, "Arbain"¹⁰ uslubida asar yaratish Islom olamida yaxshi bir an'anaga aylangan. Bunga Nabiy sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadislari asos bo'ladi:

قال رسول الله ﷺ

⁹ Qo'lyozma asarlar fondi mudiri Sharifjon Islomovning Kun.uz saytiga bergen intervyusidan // Kun.uz. 2020-yil, 8 yanvar.

¹⁰ Izoh: Arab tilidan olingan so'z bo'lib, "qirqta" degan ma'noni anglatadi, iste'molda qirqta saylanma hadisdan iborat hadis kitoblariga aytildi.



“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023”

من حفظ عن أمتي أربعين حديثاً من أمر دينها بعثه الله فقيها وَكُنْتَ لَهُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ شَافِعاً وَشَهِيداً

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Kim ummatimga din ishlari borasida qirqta hadisni muhofaza qilib bersa, Alloh uni Qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi va Qiyomat kuni men unga shafoatchi va guvoh bo’laman¹¹”.

Mazkur hadisi sharifning ilhomni bilan ko’pchilik muhaddis va ulamolar “Arbain” asarlarini yaratishgan. Bu tur hadis kitoblarini ikki qismga ajratish mumkin:

1. Ma’lum bir mavzudagi hadislardan qirqtasini jamlagan asarlar. Masalan, odob-ahloq, ilmning fazilati, Madinaning fazli haqida, hajga yoki tabobatga oid hadislardan tuzilgan arba’iynlar kabi. Navoiy “Arbain”i aynan shu turga mansub bo’lib, unda odob-axloqqa doir hadislar jamlangan.

2. Islomning umumiy asoslarini ifoda etuvchi hadislardan tuzilgan “Arbain”lar. Bularda mavzu cheklanmaydi. Bu tur Arbainlar ichida eng mashhur va mo’tabari imom Navaviyning “Arbain”lari ekaniga shubha yo’q¹².

Xususan, buyuk olim Abdurrahmon Jomiy¹³ rahmatullohi alayh fors tilida, Imam Muhiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy¹⁴ (rahmatullohi alayh), Muhammad bin Sulaymon Fuzuliy¹⁵ “Arbain” tuzib, unda fazilatli amallarga doir qirqta hadisni jamlab asar yaratganlar. Keyinroq Jomiyning xos shogirdi, mumtoz shoir Mir Alisher Navoiy ham ustoz yo’lidan borib, o’zining “Arbain” asarini bitgan. bir qator ulamolar she’riy “Arbain”lar yozishgan. Jumladan, O’zR FA ShI qo’lyozmalar fondi kartotekalarini ko’zdan kechirganimizda qarib 80 ta «Arbain» asarlari qo’lyozmalarini va ularning bir necha nusxalari mavjudligi ma’lum bo’ldi. Kataloglarda ushbu qo’lyozmalardan faqat ba’zilari haqidagina qisqacha ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, aksariyat qo’lyozmalar ularda o’z aksini topmaganligi aniqlandi. Masalan, 9361 raqami ostida Alisher Navoiyning “Arbain¹⁶” asari, Abdurrahmon Jomiy (rahmatullohi alayh)ning fors tilidagi

¹¹ Izoh: Bu hadis juda ko’p muhaddislar tomonidan rivoyat qilingan mashhur hadis hisoblanadi. Jumladan, uni imom Bayhaqiy Abu Dardo va Abu Hurayra roziyallohu anhumodan, Daylamiy Ibn Mas’ud va Ibn Abbas roziyallohu anhumdan, Abu Nu’aym ibn Mas’ud roziyallohu anhudan, Ibn Javziy esa Aliy roziyallohu anhudan rivoyat qilganlar.

¹² Hasanxon va Husaynxon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoe. – Toshkent: Hilol-nashr, 2014. – B. 60.

¹³ Jomiy taxallusi bo’lib, asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad 1414.7.11 sanada Jomda dunyoga keladi. 1492.8.11 sanada Hirotda vafot etadi.

¹⁴ Shayxul islam, Muhyiddiyn Abu Zakariyyo Yahyo ibn Sharaf ibn Murriy ibn Xasan ibn Xusayn ibn Muhammad ibn Jum’a ibn Xizom Navaviy hozirgi Suriya davlatining Xavron qishlog‘ida-hijriy 631-1233 yilda tavrallud topgan. U 676-1278 yilda vafot etgan.

¹⁵ Muhammad Sulaymon Fuzuliy (Məhəmməd Füzuli) (1498 Karbalo sh., Iroq — 1556) — Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri. Ozarbayjon, fors va arab tillarida ijod qilgan.

¹⁶ 1262-hijriy-yili ko’chirilgan bo’lib, kotibi noma’lum. Nastaliq yozuvida arab tilida yozilgan. Asar 7 betdan iborat bo’lib, har bir bet 9 qatordan. Sahifalar o’lchami 19,5 ga 12,5 sm. 1954 yil Toshkentda nashr qilingan SVR (O’zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Sharq qo’lyozmalarini to’plami)ning II tomiga Alisher Navoiy «Arba’in» asarining 1315-VI-raqamli va 9762-raqamli qo’lyozma nusxalari, 1983 yil nashr qilingan «Navoiy asarlari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

"Arbain¹⁷"i, 3294-I raqami ostida Imom Muhiddin Zakariyo ibn Sharaf Navaviy (rahmatullohi alayh)ning "Arbain¹⁸"i, Muhammad bin Sulaymon Fuzuliyning "Arbain"i, 12484 raqami ostida Abu Tahir bin Hasan Ali al-O'shiyning "Arbain hadis¹⁹"i, 2669 raqami ostida Muhammad bin Jazariy Shoshiyning "Arbain Masoil²⁰"i saqlanayotganini guvohi bo'ldik.

Abdurahmon Jomiy "Arbain" asarini 1481-yili arabchadan forschaga tarjima qilib, uni ko'zdan kechirib chiqish uchun Navoiyga taqdim etadi. Ustoz va shogird o'rtasidagi bunday ajoyib an'anaga atrofdagilar qoyil qolar, zero Navoiyning ham yangi asarlarining birinchi o'quvchisi Jomiy bo'lar edi. Navoiy "Arbain" asarini nazardan o'tkazar ekan, unda asarni turkiyga tarjima qilish niyati paydo bo'ladi: Alisher Navoiy buning uchun ustozni Jomiydan izn so'raydi, natijada "Arbain"ning turkiy tildagi tarjimasi vujudga keladi va avlodlarga arzigulik tuhfa tortiq etiladi. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Arbain" ham Jomiyning "Arbain" asari kabi o'sha 1481-yilning o'zida yozib tugatilgan²¹. Bundan ko'rindaniki, Jomiy va Navoiy davrida hadis ilmiga e'tibor, hadis sabog'iga ehtirom katta bo'lib, undan tarbiya vositasida istifoda etish an'anasi mavjud ekan. Husayn Boyqaro²² hukmronligi yillarida²³ hadis ilmi mакtab va madrasalarda alohida dars va fan sifatida o'tilishi belgilab qo'yilgani yanada e'tiborli hodisadir. Navoiy zamonida ham butun ulus, xususan, oddiy xalq ommasi arab tilini bilmagan va bu tilda yozilgan manbalarni tushunmagan edi²⁴. Navoiyning "Arbain"ini an'anaviy hamd²⁵ va na't²⁶ bilan

qо'lyozmalarining tavsifi»ga 232-, 316-, 8-raqamli qо'lyozma nusxalar hamda 1989-yili chop etilgan «Qо'lyozmalar instituti fondi katalogi»ga yana 316, 8-raqamli qо'lyozma, 2006 yil nashr qilingan «Alisher Navoiy nomidagi adabiyot davlat muzeyi qо'lyozmalari katalogi»ga 8-raqamli qо'lyozma nusxa kiritilganligi ma'lum bo'ldi.

¹⁷ 1954-yil Toshkentda nashr qilingan SVR (O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Sharq qо'lyozmalari to'plami)ning II tomiga Jomiy «Arba'in» asarining faqatgina 2 ta qо'lyozmasi – 4535-I- va 1331-raqamli nusxalarini hamda ushbu katalogning 1957 yilda nashr qilingan VI tomida 3014-VI--raqamli qо'lyozma nusxalarini tavsifi kiritilgan bo'lib Jomiy 1414–1492 yillarda yashagan. Jomiy «Arba'in»ning mavjud 12 ta qо'lyozmasidan maxsus katalog nashrlariga kirmagan 8 tasi – 282-VI, 1266-II, 6051-III, 3636-II, 3386-XXVII, 2202-I, 5900-I, 10493-XVI-raqamli qо'lyozma nusxalaridir. SVR. II tom. – Toshkent: Fan. 1954. –B. 191, – B 411. SVR.VI tom. – Toshkent: Fan. 1963. – B. 432.

¹⁸ Ko'chirilgan yili va kotibi noma'lum. Nastaliq yozuvida o'zbek tilida yozilgan. Asar 2 (163-164) varoqdan iborat bo'lib, har bir bet 13 qatordan. Sahifalar o'chhami 15,5 ga 26 sm.

¹⁹ 1000-hijriy-yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq yozuvida arab tilida yozilgan. Asar 7 betdan iborat bo'lib, har bir bet 9 qatordan. Sahifalar o'chhami 19,5 ga 12,5 sm.

²⁰ Xattot Shayx Abdulqodir al-Madaniy tamonidan arab tilida Nasx yozuvida yozilgan bo'lib, asar 2 varoq har bir bet 21 qatordan iborat. Sahifalar o'chhami 15 ga 23,5 sm.

²¹ Karimbek va Saidbek Xasanov. Alisher Navoi. «Arba'in». «Meros» Nashiryoti. – T.: -1991. –B. 76.

²² Izoh: 1438–1507 yillarda yashagan.

²³ Izoh: 1469–1507 yillariga to'g'ri keladi.

²⁴ Alisher Navoiy – Arba'in xadis – Qirq xadis. Tuzuvchilar: Qobil Ahad, Olloberdi Mahmud; Kitob: Po'lat Samad.- T.: 1991. – B. 45.

²⁵ Izoh: Hamd arab tilidan olingen bo'lib, lug'atda ulug'lash, madh qilish ma'nosida keladi. Iste'lohma esa biror kimsa sha'niga maqtov. Sharq mumtoz adabiyotida Alloho ni madh etuvchi hamdlar ko'p yaratilgan, ular odatda doston muqaddimasining maxsus bobiga bo'lgan. Masalan, Alisher Navoiy, Mashrab, Munis, Ogahiy va boshqa shoirlar devonlari hamd bilan boshlanadi. Ular 2 xil bo'lib, tavhid hamdlar, munojot hamdlarga bo'linadi. Alisher Navoiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

boshlanadi. "Arbain" muqqaddimasi 46 misra, 40 ta hikmatli qit'a 60 misra va xotima esa 10 misradan iborat. Qit'alar 40 ta qadimiylar arabiylar hadis mazmunidan kelib chiqib yozilgan. Shu sababli "Arbain"ning hamma nusxalarida har bir qit'a ustiga mazmunidan foydalanilgan hadis yozib qo'yilgan²⁷.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan Abu Zakariyo Muhyiddin Yahyo bin Sharofuddinan-Navaviyning "Arbain an-Nawaviy"²⁸ (12 nusxada) asari 6262-III, 6437-II, 6437-III, 8181-II, 8124-I, 2131-IV, 4826-I, 4602-II, 4079-II²⁹, 3294-I raqam ostida, Majdiddin Sharof bin al-Muyiddin al-Bag'dodiyning "Arbain"³⁰i 3294-III-raqam ostida, Jalol bin Muhammad bin Ubaydulloh al-Qoyiniy al-Buxoriy al-Hiraviyning "Arbain fil-axloq", Muhammad bin Abu Bakr Usfuriyning "Arbain Usfuriy"³¹ asari 5791-V-raqam ostida, Amir Sayid (bin) Aliy Shahob Hamadoniyning "Chihl hadis dar sifat fuqaro"³² 12613-XXVI-raqam ostida, "Arbain al-Oliy", "Arbain al-Loliy" (jami 5 nusxada), Ash-Shayx Muhammad al-Omosaviyning "Arbain al-mavsum bi shifai al-qulub", Muhammad Nomrodning "Arbainiya" va "Chil hadis manzuma" (2 nusxada), Abu Tohir Muhammad bin Hasan Aliy O'shiyning "Arbain hadis"³³ 12484-II, Zakiddin Abu Muhammad Abdulazim al-Qaviy bin Abdulloh al-Mahtadiyning "Arbain fi istinoi'n", Mir Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniyning "Chil hadis" (5 nusxada), Fasih ad-Dinning "Chihl hadis" (2 nusxada), Said Ahmad Vasliy Samarqandiynning "Chihl hadis"³⁴ 10337-II-raqam ostida, Abduljalil ibn Muhammad Ibrohimning "Chihl hadis tarjimasi", Abdullatif bin Shayx Sulaymon Turbatiyning "Chil hadis

ijodida har ikki ko'rinishdagi hamdlar ko'p uchraydi. Nasriy asarlar ham qisqacha hamdlar bilan boshlangan. G'afforova Z, Navoiyning hamd va na't g'azallari, T., 2001. –B. 153.

²⁶ Izoh: Na't — she'riyatimizda payg'ambar Muhammad alayhissalom madhiga bag'ishlangan asarlar. G'afforova Z, Navoiyning hamd va na't g'azallari, T., 2001. –B. 153.

²⁷ Qayumov Aziz - Alisher Navoiy. - T. 1991. –B. 34.

²⁸ O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida saqlanib kelinayotgan 3294-I-raqam ostidagi asar Nastaliq yozuvi, arab xatida bo'lib, asar 10 (1-10) varoqdan iborat. Har bir sahifa 15 qatordan bo'lib, Sahifalar o'lchami 13 ga 18 sm. Asarning yozilgan-yili noma'lum bo'lib, asl manba hisoblanadi. Asarning 2 varoq suquti bor.

²⁹ Ko'chirilgan sanasi 998-hijriy bo'lib, asar Nosir kotib tamonidan ko'chirilgan. Nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 4 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 23 qatordan. Sahifalar o'lchami 12,5 ga 18,5sm.

³⁰ Yozilgan-yili noma'lum bo'lib, asl manba hisoblanadi. Nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 2 (17-18) varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 15 qatordan. Sahifalar o'lchami 13 ga 18 sm.

³¹ Ko'chirilgan sanasi 1310-yil bo'lib, nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 40 (131-171) varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 21 qatordan. Sahifalar o'lchami 16 ga 27 sm.

³² Ko'chirilgan sanasi noma'lum bo'lib, asar Muhammad bin Vafo bin Muhammad Qosim kotib tamonidan ko'chirilgan. Nastaliq xati, fors tilida yozilgan. Asar 4 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 23 qatordan. Sahifalar o'lchami 22 ga 34sm.

³³ 1000-hijriy-yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq yozuvida arab tilida yozilgan. Asar 7 betdan iborat bo'lib, har bir bet 9 qatordan. Sahifalar o'lchami 19,5 ga 12,5 sm.

³⁴ 1331/1912-yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, fors tilida yozilgan. Asar 32 varoq (104-136)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 11 qatordan. Sahifalar o'lchami 14 ga 22 sm.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

manzuma", Ashrof bin Muhammad at-Tobib al-Kirmoniyning "Arbain"³⁵ i 3200-III-raqam ostida, Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy "Arbain" asari 775-V³⁶ va 10865-XI³⁷-raqam ostida, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan shoir, Muqimiyning zamondoshi Muhayyirning "Chil hadis" (Puroniy asarining tarjimasi), Muhammad Murod Mavlono Shomiyning "Chil hadis", yana mualliflari noma'lum bo'lgan "Ahadisul Arbain"³⁸ 4103-VI-raqam ostida, "Ahadisul Arbain ma'al-hikoyat"³⁹ 12087-raqam ostida, Jomiy va Navoiy "Arbain" asarlarining birgalikda kitobot qilingan "Chihl hadis Jomiy, Navoiy tarjimasi" 1821-I⁴⁰, 6736-I⁴¹ va 8848-I⁴²-raqam ostida, "Abdurrahmon Jomiy Alisher Navoiy Chihl hadis tarjima manzuma"si 2634-V⁴³, 3303-IV⁴⁴, 3975-IV⁴⁵ va 5726-I⁴⁶-raqam ostida, "Arbain Navoiy tarjima Arbain Jomiy" 3902-V⁴⁷, "Arbain manzuma" 11342-II⁴⁸-raqam ostidagi va bundan tashqari 670-I, 4351-I, , 6236-I, 10007-III, 12654-III, 9309, 1235, 106-IV, 2084, 11703-II-raqamlı 20 dan ortiq qo'lyozma nusxalari, Navoiy "Arbain" asarining esa 13237⁴⁹, 11315-I⁵⁰-raqam ostida, "Tarjima Chihl hadis manzuma"si

³⁵ 939-hijriy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nasx xati, arab tilida yozilgan. Asar 11 varoq (91-101)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 15 qatordan. Sahifalar o'lchami 13 ga 17,5 sm.

³⁶ Yozilgan-yili noma'lum. Nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 2 varoq (403-404)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 21 qatordan. Sahifalar o'lchami 18 ga 28 sm.

³⁷ Yozilgan-yili noma'lum. Nasx xati, arab tilida yozilgan. Asar 1 varoq (116-117)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 17 qatordan. Sahifalar o'lchami 14 ga 24 sm.

³⁸ Nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 4 varoq (52-54)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 12,5 ga 18sm.

³⁹ Domla Rahmatulloh al-Bariy Quvaviy tamonidan ko'chirilgan. Yozilgan-yili noma'lum. Nastaliq xati, arab tilida yozilgan. Asar 98 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 14 qatordan. Sahifalar o'lchami 21 ga 16 sm.

⁴⁰ Hirotda ruboyi shaklida yozilgan. Nastaliq xati, tojik va o'zbek tilida yozilgan. Asar 43 varoq dan iborat bo'lib, har bir sahifa 4 qatordan. Sahifalar o'lchami 13,5 ga 21,5 sm.

⁴¹ Ko'chirilgan yili va kotibi noma'lum. Nastaliq xati, tojik, o'zbek tilida yozilgan. Asar 15 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 15 ga 22 sm.

⁴² 1282-hijriy, 1865-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, tojik o'zbek tilida yozilgan. Asar 11 varoq (1-21)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 5 qatordan. Sahifalar o'lchami 14 ga 21 sm.

⁴³ 1332-hijriy, 1913-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, arab, tojik, o'zbek tilida yozilgan. Asar 10 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qator. Sahifalar o'lchami 20 ga 12,5 sm. Matbu' bo'lib qo'lyozma kitoblar bilan bir muqovada.

⁴⁴ 1310-hijriy 1893-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, arab, tojik, o'zbek tilida yozilgan. Asar 12 varoq (91-101)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 15 qatordan. Sahifalar o'lchami 13 ga 17,5 sm.

⁴⁵ Hirotda tarjima qilingan. Nastaliq xati, tojik, o'zbek tilida yozilgan. Asar 10 varoq (75-84)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 20 ga 12 sm.

⁴⁶ 1291-hijriy 1875-milodiy yili Hirotda ko'chirilgan bo'lib, kotibi Mulla Muhammad Sheralibek Shahrisabziy. Nastaliq xati, arab, tojik, o'zbek tilida yozilgan. Asar 7 varoq dan iborat bo'lib, har bir sahifa 17 qatordan. Sahifalar o'lchami 15,5 ga 26,5 sm. Asarning so'nggi varog'I yo'q.

⁴⁷ 886-hijriy, 1481-milodiy yili Navoiy o'z qo'li bilan yozgan bo'lib mo'tabar manba hisoblanadi. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 7 varoq dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 13 ga 17,5 sm.

⁴⁸ 1281-hijriy, 1864-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nasx va nastaliq xati, arab-fors tilida yozilgan. Asar 10 varoq (2-12)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 14 qatordan. Sahifalar o'lchami 12,5 ga 20 sm.

⁴⁹ 1275-hijriyda Horazmda ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nasx va nastaliq xati, arab-fors tilida yozilgan. Asar 125 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa turli qatordan iborat. Sahifalar o'lchami 15 ga 24 sm. Asarda "Arba'in", "Fiqhu Kaydoniy", "Farz ayn turkiy", "Lisonut tayr" asarlari jamlangan.

⁵⁰ Ko'chirilgan yili va kotibi noma'lum. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 7 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 14 qatordan. Sahifalar o'lchami 12 ga 19 sm.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

8991-XIV⁵¹-raqam ostida, "Chihl hadis tarjima manzuma"si 3622-I⁵²-raqam ostida, "Tarjima Chihl hadis" 1315-III⁵³-raqam ostida, "Chihl hadis tarjimasi" 7732-III⁵⁴-raqam ostida, "Chihl hadis" I 9762-III⁵⁵-raqam ostida, "Hadisu Arbain bo tarjumati manzuma" 7757-VI⁵⁶-raqam ostida hamda "Hadisi Arbain tarjimasi" 9488-I-raqam ostida, qo'lyozma nusxalaridan eng qadimiyleri bo'lmish 976⁵⁷, 8⁵⁸ va 316⁵⁹-raqamli Navoiy "Kulliyot"i, Navoiy "Arbain"ining To'pqopni⁶⁰ va Sultoniy kutubxonasi nusxalari⁶¹ kabi 100 dan ortiq arab, fors va o'zbek tillarida yaratilgan asarlar bilan tanishdik. "Arbain" asarlarining ko'pligi va bir qancha tillarda yaratilganligini ko'rgach, xulosa qilib aytamizki, ulamolar naqafat Nabiyy solallohu alayhi vasallamning shafoatlariga sazovar bo'lish umidida balki zamon ahlining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda ushbu asarlarni bitganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent.: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
2. Shamsiyev P. (to'plovchi), Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Toshkent, 1966.
3. Tanlangan asarlar (3 jildli). Toshkent, 1948.
4. Asarlar (15 jildli), 1 – 15-jildlar, Toshkent, 1963 – 1968.
5. Sobr. soch. v desyati tomax, Tashkent, 1968-1970.
6. Sharhul muslim: Nabaviy. Bayrut: Dorul ihya, 1392. B: 11 / 23 Internet ma'lumotlari
7. www.ziyouz.com

⁵¹ 1248-hijriy, 1832-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 7 varoq (176-83)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 15 ga 25 sm.

⁵² 1250-hijriy, 1835-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi Mulla Muhammad. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 6 varoq (24-29)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 16 ga 27,5 sm.

⁵³ Ko'chirilgan yili va kotibi noma'lum. Nastaliq va nasx xati, arab va o'zbek tilida yozilgan. Asar 2 varoq (648-650)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 19 qatordan. Sahifalar o'lchami 22,5 ga 38 sm.

⁵⁴ Ko'chirilgan yili va kotibi noma'lum. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 3 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 15 qatordan. Sahifalar o'lchami 14,5 ga 21 sm.

⁵⁵ 967-hijriyda Misrda ko'chirilgan bo'lib, kotibi Mahmud bin Dovud. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 5 varoqdan iborat bo'lib, har bir sahifa 20 qatordan. Sahifalar o'lchami 15,5 ga 28 sm.

⁵⁶ 1283-hijriy, 1866-milodiy yili ko'chirilgan bo'lib, kotibi noma'lum. Nastaliq xati, o'zbek tilida yozilgan. Asar 7 varoq (24-29)dan iborat bo'lib, har bir sahifa 13 qatordan. Sahifalar o'lchami 12 ga 20 sm.

⁵⁷ SVR. VII Tom, Toshkent. Fan 1964. (5326-raqamli qo'lyozma).

⁵⁸ M.Hakimov. Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi. Toshkent: Fan. 1983. -B.177-178.

⁵⁹ Katalog fonda instituta rukopisey. 1 tom. – Tashkent: Fan. 1989. –B. 11-12.

⁶⁰ Turkiyaning To'pqopni muzevida tashkil etilgan Revan kutubxonasida 808-raqami ostida saqlanayotgan Alisher Navoiy kulliyoti – asarlari to'plami tarkibidagi "Arba'in" risolasi saqlanadi.